

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.30/03.12.2019. Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**KADIROV SHAVKAT SHAVKATOVICH**

**“AKVAKULTURA” PROFILDAGI TALABALARNI SUZISH  
VOSITALARINI QO‘LLASH AFZALLIGIDA KASBIY-AMALIY JISMONIY  
TAYYORLASH**

**13.00.04 –Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doktor philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Kadirov Shavkat Shavkatovich**

“Akvakultura” profildagi talabalarni suzish vositalarini qo‘llash afzalligida kasbiy-  
amaliy jismoniy tayyorlash.....3

**Кадыров Шавкат Шавкатович**

Профессионально-прикладная физическая подготовка студентов по профилю  
«Аквакультура» с преимуществом использования средств плавания.....25

**Kadirov Shavkat Shavkatovich**

Professional-applied physical training of students on the profile “Aquaculture” with  
the advantage of using swimming facilities.....49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.30/03.12.2019. Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI**

**KADIROV SHAVKAT SHAVKATOVICH**

**“AKVAKULTURA” PROFILDAGI TALABALARNI SUZISH  
VOSITALARINI QO‘LLASH AFZALLIGIDA KASBIY-AMALIY JISMONIY  
TAYYORLASH**

**13.00.04 –Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy  
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq - 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD /Ped 3242 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning [www.jtsu.uz](http://www.jtsu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kdirova Muxabbat Allaniyazovna**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Olimov Muxsinbek Sotivoldiyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Sadiqov Akbar Gayratovich**  
pedagogika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19 - uy. Tel.: (0-370)717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76, veb-sayt: [www.jtsu.uz](http://www.jtsu.uz), e-mail: [info@jtsu.uz](mailto:info@jtsu.uz). (O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E-bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatilgan.  
(2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**R.M.Matkarimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

**M.A.Ibragimov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

**A.N.Shopulatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
p.f.d. (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyoda zamonaviy mutaxassislarni ish sharoitiga tayyorlash yangi innovatsion, u yoki bu kasb uchun zarur bo'lgan maxsus sifatlar majmuasini o'z ichiga oladigan yondashuvlarni talab etilmoqda. Mutaxassislar faoliyatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lish dolzarbligi kundan kunga oshib bormoqda. Talabalarni samarali ish faoliyatiga muvaffaqiyatli tayyorlashning asosi rejalashtirilgan o'quv-mashg'ulot jarayoni va OTMda butun o'qish davrida kasbiy-amaliy jismoniy sifatlarini shakllantirishdan iboratdir. Bugungi kunga qadar olimlar ishlanmalari asosida ko'plab kasblar uchun kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqilgan. Biroq, hozirgi kunga qadar "Akvakultura" ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik dasturi ishlab chiqilmagan. Bu borada "Akvakultura" yo'nalishi bo'yicha talabalarning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi muammosini hal etish dolzarb muammo hisoblanmoqda.

Jahonda "Akvakultura" yo'nalishi mutaxassislarini tayyorlash jarayonida ilmiy va uslubiy asoslangan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni qo'llash dolzarblashib bormoqda. Har bir bo'lajak mutaxassis uchun kasbiy faoliyatga tayyorgarlik sifati, shu jumladan, jismoniy tayyorgarlik sifati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tarbiyaning ilmiy-texnik taraqqiyoti talablariga javob beradigan yangi ilmiy asoslangan vosita va uslublarini izlash bugungi kunda jismoniy tarbiya va uslubiyatining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bir qator zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarni jismoniy tayyorgarligi oliy o'quv yurtlari oldida turgan muammolarini to'liq hal qila olmaydi, chunki mehnatni tashkil etishdagi zamonaviy talablar mutaxassislarning o'ziga xos ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini taqozo etmoqda. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi kelgusi kasbiy faoliyatning sharoitlari va xarakterini hisobga olgan holda amalga oshirilishi uchun kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik elementlariga zaruriyat yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish, taraqqiyot bilan hamnafas bo'ladigan mutaxassislar tayyorlash borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohalari va mehnat bozori o'rtasida katta tafovut mavjud, natijada oliy ma'lumot talab qiladigan lavozimlar bo'sh qolmoqda. O'zbekistonning turli tabiiy-iqlim va iqtisodiy tumanlarida ishlaydigan suv biologik resurslari va suv xo'jaligi mutaxassislarining universitet bitiruvchilari kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini sharoitlar, mehnat xarakteri va kelajakdagi kasbining boshqa omillarini hisobga olgan holda profillash. "Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"<sup>1</sup> kabi vazifalari belgilab berilgan. Shu munosabat bilan bugungi kunda talabalarning o'quv yuklamasini aniqlash va o'quv jarayonini

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

tashkil etishning zamonaviy shakllarini joriy etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va shu sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Talabalarning kasbiy va amaliy tayyorgarligi bo‘yicha Respublika mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning butun spektri bo‘yicha G.M.Krasnova, M.B.Urazova, A.T.Xasanov, I.V.Panferova, D.F.Djabbarova<sup>2</sup> o‘quvchilarning kasbiy amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, kasb-hunar ta’lim o‘quvchilarini tayyorlashni loyihalashtirish, harbiy bilim yurtlari kursantlarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligidan foydalanish, kasbga yo‘naltirilgan kompetensiyalarini shakllantirish, pedagog kadrlar tayyorlashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Biroq, talabalarning kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligi uchun suzish vositalaridan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar yetarli emas.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi yetakchi mutaxassislari V.A.Trefilov, Yu.I.Evseev, V.A.Karpov, A.I.Davidenko, G.V.Ponomareva<sup>3</sup> kabi mualliflar o‘z

---

<sup>2</sup>Краснова Г.М. Формирование профессиональных знаний и умений по плаванию у студентов института физической культуры. Автореф. дис. канд. пед. наук. 2009. - С. 8-10; Уразова М.Б. Теория и практика подготовки будущего педагога профессионального образования к проективной деятельности. Автореф. дис. канд. пед. наук. 2012. - С. 3-7; Хасанов А.Т. Педагогическая технология профессионально-прикладной физической подготовки студентов факультетов допризывного военного образования. Автореф. дис. д.ф.п.н. 2018. - С. 32-33; Панферова И.В. Формирование профессионально-ориентированной компетенции студентов высших учебных заведений. Автореф. дис. д.ф.п.н. 2019. - С. 41-43; Дjabбарова Д.Ф. Совершенствование процесса использования современных педагогических технологий в профессиональной подготовке будущих учителей. Автореф. дис. д.ф.п.н. 2022. - С. 31-33

<sup>3</sup>Трефилов, В.А. Формирование физической готовности выпускников вуза к профессиональной деятельности. / В.А. Трефилов, А.В. Дубровский // Теория и практика физической культуры. 2002. - № 7. - С. 49-51; Евсеев, Ю.И. Профессионально-прикладная физическая подготовка студентов. Физическая культура в профессиональной деятельности бакалавра и специалиста. / Ю.И. Евсеев // Физическая культура: учебное пособие. Ростов н/Д.: Феникс, 2003. - С. 290-354; Карпов, В.А. Профессионально-прикладная физическая подготовка курсантов речных училищ автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.04: [ВНИИФКиС] / Карпов Виктор Андреевич. М., 2003. - 23 с.; Давиденко, А.И. Организация и содержание профессионально-прикладной физической подготовки студентов технических вузов / автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.04: КГУФКСТ / Давиденко Алла Ивановна. Краснодар, 2005. - 25 с.; Пономарёва, Г.В. Формирование и развитие

tadqiqotlarida innovasion texnologiyalar, aerobika, gimnastikadan foydalangan holda turli yo‘nalishdagi talabalarining kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligini qo‘llash muhimligini bayon qiladilar. Tadqiqotlar davomida mutaxassislarni tayyorlash masalalari yoritilmagan va talabalarni bo‘lajak kasb sharoitlariga kasbiy-amaliy tayyorlashda suzish vositalarini qo‘llash bo‘yicha yetarlicha ilmiy-uslubiy ma‘lumotlar berib o‘tilmagan.

Xorijiy olimlar J.L.Lund, M.F.Kirk, C.MacDonald, R.J.Doan, S.Chepko, L.Saraylo<sup>4</sup> tomonidan bo‘sh vaqtlarida mustaqil ta‘lim doirasida kasbiy amaliy jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish usullarini tavsiflangan, shunday qilib, ko‘pchilik usullar o‘z-o‘zini nazorat qilish sxemalarini tavsiflaydi. Shu bilan birga, asosiy akademik mashg‘ulotlar sifatida kasbiy amaliy jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishni ilmiy asoslash muammolari o‘rganilmagan. Biroq, bu yondashuvning asosiy kamchiliklari taklif etilayotgan materialni o‘zlashtirish darajasi va sifatini nazorat qila olmaslikdir.

Tahlil qilingan maxsus adabiyotlarda biz tomonimizdan talabalarining kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligini rejalashtirish va tashkil etish masalalari bo‘yicha va mutaxassislarni bulajak kasbga sifatli tayyorlashning suzish vositalaridan yetakchi tarkibiy qismi sifatida foydalanish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar yetarli emasligi bilan ifodalamoqda.

**Dissertatsiya tadqiqoti bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidagi V-1-28 “Respublikadagi sport ta‘lim muassasalarda suv sporti va eshkak eshish turlari bo‘yicha tarbiyalanuvchi yoshlarning tayyorgarlik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** suzish vositalaridan foydalangan holda “Akvakultura” ta‘lim yo‘nalishi talabalarini tayyorlash samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

eng muhim omillarni, mehnat obyektlarini va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan sifatlar va malakalarni aniqlash, ular asosida “Akvakultura” profili bo‘yicha mutaxassisning professiogrammasini tuzish;

“Akvakultura” ta‘lim yo‘nalishi talabalarining bo‘lajak kasbiy faoliyatini hisobga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini korrektsiyalash orqali kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligining namunaviy ko‘rsatkichlarini belgilash;

fanning ishchi dasturiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali “Akvakultura” yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish jarayonini optimallashtirish;

---

профессионально важных физических качеств у студентов: автореф. дис. канд. пед. наук: 13.00.04: [МГАФК] / Пономарева Галина Владимировна. Малаховка. 2009. - 25 с.

<sup>4</sup>Jacalyn Lea Lund, Mary Fortman Kirk Performance-Based Assessment for Middle and High School Physical Education. Human Kinetics Publishers. 2010. - pp. 185-196.; Lynn Couturier MacDonald, Robert John Doan, Stevie Chepko Lesson Planning for High School Physical Education with Web Resource: Meeting the National Standards & Grade-Level Outcomes. Human Kinetics Publishers. 2017. - pp. 547-549; Jacalyn Lea Lund, Mary Fortman Kirk Performance-Based Assessment for Middle and High School Physical Education. Human Kinetics Publishers. 2019. - P. 56.; Lilia Saraylo Professional applied physical training. Our Knowledge Publishing. 2021. - pp. 36-44.

suzish vositalaridan foydalanish afzalligi bilan “Akvakultura” ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi blokli tizimini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** “Akvakultura” profili talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayonidir.

**Tadqiqotning predmeti** “Akvakultura” profili talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligining blokli tizimini mazmunidir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, professiografiya, modellashtirish, pedagogik testlar, pedagogik tajriba, matematik-statistik uslublaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

suv sportiga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat faoliyati samarasini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan ish mazmunini, kasbiy faoliyatning sohasi, faoliyatining obyektlari, muhim fazilatlarini va kompetensiyalarini birlashtirgan akvakultura sohasi mutaxassislari poressiogramma yordamida kasbga qo‘yiladigan aqliy, psixologik, jismoniy talablarini o‘z ichiga olgan xarakteristikasi shakllantirilgan;

suv xo‘jaligi sohasi talabalarining “Jismoniy tarbiya va sport” fanini o‘qitish jarayonini muvofiqlashtirish uchun ijobiy mashg‘ulot ta’sirini o‘tkazish imkonini ta’minlovchi maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini o‘z ichiga olgan amaliy jismoniy tayyorgarlik kasbiy modeli takomillashtirilgan;

“Akvakultura” yo‘nalishi talabalarining zaruriy kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish maqsadida kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik bo‘limiga suzish tayyorgarligi bo‘yicha nazorat me‘yorlarini kiritish asosida yillik siklda bajaradigan me‘yoriy talablarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

akvakultura va suv bioresurslari yo‘nalishi talabalarining o‘quv materiallarini o‘zlashtirish sifatini oshirish va kasbiy malakalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan suzish, amaliy suzish, akvagimnastika, akvadjogging, akvabilding, akvastreching, akvatlon, fridayving va suv ostida mo‘ljalga olish vositalarini o‘z ichiga olgan kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning blokli tizimi orqali talabalarni kompleks tayyorgarlik tizimini boshqarish samaradorligi oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

“Akvakultura” yo‘nalish mutaxassisning professiogrammasi ishlab chiqilgan;

“Akvakultura” yo‘nalish talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi namunaviy tavsiflari aniqlandi;

“Akvakultura” yo‘nalish talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi ishchi dasturi optimallashtirildi;

suzish vositalaridan foydalangan holda “Akvakultura” profilidagi mutaxassisning kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi blokli tizimi ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodologiyasi sohasidagi xorijiy va mahalliy olimlarning fikr-mulohazalariga asoslanganligi, bir-birini to‘ldiruvchi o‘rganish usullaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanadi. O‘rganish natijalari, topshiriqlarni miqdoriy va sifat jihatidan ta’minlash va o‘rganishni tahlil qilish, olingan eksperimental ma’lumotlar va natijalarni matematik

va statistik tahlil usullaridan foydalangan holda qayta ishlash, natijalari vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, “Akvakultura” yo‘nalishdagi mutaxassislarining kasbiy ahamiyatga ega jismoniy fazilatlari va fiziologik xususiyatlari, oliy o‘quv yurtlarida ushbu mutaxassislik bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarining kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning tashkiliy va mazmunli jihatlari, kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik akademik tadqiqotlarining texnik oliy o‘quv yurtlari talabalarining umumiy va kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligiga ta’siri haqidagi g‘oyalarni kengaytirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, “Akvakultura” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha talabalarni tayyorlash jarayonida kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Bu yondashuvlar bo‘lajak kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan jismoniy sifatlar va fiziologik xususiyatlarni rivojlantirishni ta’minlashga qaratilgan. Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirish uchun zamonaviy talablarga muvofiq blokli tizim ishlab chiqildi. Ushbu tizim talabalarni kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha jismoniy va fiziologik ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vositasidir. Blokli tizim talabalarining jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasiga olib chiqish, ularning kasbiy kompetensiyalarini yanada kuchaytirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Suzish vositalaridan foydalangan holda “Akvakultura” ta’lim yo‘nalishi talabalarini tayyorlash samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy tadqiqot ishlari asosida:

suv sportiga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat faoliyati samarasini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan ish mazmunini, kasbiy faoliyatning sohasi, faoliyatining obyektlari, muhim fazilatlarini va kompetensiyalarini birlashtirgan akvakultura sohasi mutaxassislari poressiogramma bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi tinlovchilarti kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayoniga tadbiiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 7-dekabrdaqi 03-01/04/20/13246-son ma’lumotnomasi). Natijada, kursantlarning jismoniy va kasbiy-amaliy tayyorgarlik darajasi 39% ga oshirilgan;

suv xo‘jaligi sohasi talabalarining “Jismoniy tarbiya va sport” fanini o‘qitish jarayonini muvofiqilashtirish uchun ijobiiy mashg‘ulot ta’sirini o‘tkazish imkonini ta’minlovchi maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalarini o‘z ichiga olgan amaliy jismoniy tayyorgarlik kasbiy modeli bo‘yicha takliflar Toshkent davlat agrar universiteti “Akvakultura” yo‘nalishida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga tadbiiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 7-dekabrdaqi 03-01/04/20/13246-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarining o‘qishga bo‘lgan qishiqishini oshirib, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarida yaxshi va a’lo bahoga o‘qiydigan talabalar salmog‘ini 48% ga oshirish imkonini bergan;

“Akvakultura” yo‘nalishi talabalarining zaruriiy kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilish maqsadida kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik

bo'limiga suzish tayyorgarligi bo'yicha nazorat me'yorlarini kiritish bo'yicha tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida talabalarining mashg'ulot jarayonlariga tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 7-dekabrdaagi 03-01/04/20/13246-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarining suzish tayyorgarligi 73% ga yaxshilangan;

akvakultura va suv bioresurslari yo'nalishi talabalarining o'quv materiallarini o'zlashtirish sifatini oshirish va kasbiy malakalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan suzish, amaliy suzish, akvagimnastika, akvadjogging, akvabilding, akvastreching, akvatlon, fridayving va suv ostida mo'ljalga olish vositalarini o'z ichiga olgan kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning blokli tizimi "Astraxan davlat texnika universiteti FGBOU VO" "Akvakultura" yo'nalishi talabalarini mashg'ulot jarayonlariga tadbiiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 7-dekabrdaagi 03-01/04/20/13246-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning kasbiy-amaliy tayyorgarligida elementlarni to'liq bajarish imkoniyati 15 % ga oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda aprotasiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 3 ta maqola (2 respublika va 1 xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish qismi, to'rtta bobdan iborat bo'lib, 109 sahifa matn, 15 ta rasm, 25 ta jadval, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligini va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligini, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusi tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligini, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyektini, predmetini, usullari, ilmiy yangiligini, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligini, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyatini, joriy etilishi, aprotasiyasi, e'lon qilinganligini, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi masalasining holati**" deb nomlangan birinchi bobida oliy o'quv yurtlari talabalarini bilan kasbiy-amaliy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili berilgan.

S.N.Bogdanov, V.M.Baranov, G.P.Griban, V.A.Kozlov, M.M.Chubarov kabi olimlarning ishlarida talabalarning kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligini rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish masalalari ko'rib chiqilgan.

Chet el mualliflari I.A.Gurevich, A.E.Gulyans, R.T.Raevskiy, I.L.Lyulko, A.M.Novikov, V.I.Kabachkov, S.A.Polievskiy, Yu.F.Jabin va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning jismoniy rivojlanish masalalari bo'yicha kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik tizimining mazmuni bazaviy tarkibi sifatida kasb yo'nalishini inobatga oladigan pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlardan biri ekanligi ta'kidlangan.

Ko'pgina olimlar (A.E.Volya (Polsha), Staykov, A.Geshek, A.Stoycheva, I.Nikolova (Bolgariya), G.Erbax, F.Trogsh (Germaniya)) o'z ishlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy mehnatga psixofizik tayyorgarligiga, o'quvchilarning jismoniy va aqliy sifatlarini shakllantirish, umumiy va statik chidamlilik, fikrlash samaradorligi va boshqalariga alohida e'tibor berishadi.

Shunday qilib, maxsus va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilishdan ko'rinib turibdiki, "Akvakultura" profilidagi talabalarning kasbiy faoliyati shaxsda tegishli ko'nikma, qobiliyat va fazilatlarni rivojlantirish orqali hal qilinadigan aniq motorli vazifalarni bajarish bilan bog'liq. Har xil intensivlikdagi professional jismoniy faoliyat hajmini oshirish, boshqa narsalar qatori, insonning tegishli funktsional va jismoniy tayyorgarligini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, "Akvakultura" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga tananing individual jismoniy fazilatlari va xususiyatlarining rivojlanish darajasiga talablar qo'yiladi, bu esa kasbiy faoliyatni yanada samarali bajarishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot usullari va uni tashkil etish**" deb nomlangan 2-bobida qo'llanilgan tadqiqot usullari, asosiy pedagogik tajribani tashkil etish va o'tkazish xususiyatlari, bajarilgan ishlarning ketma-ketligi va tuzilishi, har bir usulning qisqacha mazmuni hamda foydalanish bo'yicha tavsiyalar batafsil bayon etilgan.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda (2020-yil sentabr-dekabr oylari) tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-metodik adabiyotlar va hujjatlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, tadqiqotning birinchi bosqichida Akvakultura yo'nalishdagi mutaxassislar faoliyati xususiyatlari va mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan so'rovnoma bo'yicha 80 nafar respondent o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

Ikkinchi bosqichda (2021-yil yanvar-iyun oylari) so'rovnoma asosida "Akvakultura" yo'nalishi mutaxassislari uchun zarur bo'lgan yetakchi fiziologik xususiyatlar va jismoniy sifatlar aniqlandi, ular asosida bu sohadagi mutaxassislarni kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning namunaviy xususiyatlari shakllantirildi. Shuningdek, ushbu bosqichda "Akvakultura" yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarning professiogrammasi tuzilib, maxsus suzish vositalari tanlab olindi. Bu bosqichda kasbiy ahamiyatga ega jismoniy sifatlarini rivojlanish darajasini baholash uchun nazorat mashqlari ham takomillashtirildi va suzish vositalaridan foydalangan holda o'quvchilarning kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligining blokli tizimi ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqichda (2021-yil sentabr-2022-yil avgust) "Akvakultura" yo'nalishi talabalarining suzish vositalaridan foydalanish afzalligi bilan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi blokli tizimi eksperimental tajribadan o'tkazildi. Pedagogik tajriba

Astraxan davlat texnika universitetining O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyatidagi filiali bazasida o‘tkazildi. Pedagogik tadqiqotda “Akvakultura” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 34 nafar birinchi va ikkinchi kurs talabalari ishtirok etdi. Shuningdek, ushbu bosqichda malumotlarni tizimlashtirish, matematik va statistik ishlov berish, olingan ko‘rsatkichlarni tahlil qilish va izohlash, dissertatsiyani tayyorlash va bajarish amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“Akvakultura” yo‘nalishi talabalari uchun suzish vositalaridan foydalanish afzalligi bilan kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik mazmunini loyihalash**” deb nomlangan 3-bobida “Akvakultura” profilidagi mutaxassislarning jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liq kasbiy faoliyatining xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. “Akvakultura” yo‘nalishdagi mutaxassislarning mehnat faoliyati tarkibi tabiiy va sun‘iy suv havzalarida, qirg‘oq zonalarida, turli iqlim sharoitida ishlash zarurligini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun ular turli vestibulyar qo‘zg‘alishlarga qarshilikni, muvozanatni saqlash qobiliyatini, harakatlarni yuqori muvofiqlashtirish va aniqligini rivojlantirishlari kerak.

Ushbu mutaxassislikning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish jarayonida adabiy manbaalardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, “Akvakultura” yo‘nalishdagi mutaxassisning kasbiy faoliyatini kuzatishda biz ushbu profil bo‘yicha mutaxassisning professiogrammasini tuzdik (1-jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### “Akvakultura” mutaxassisligining professiogrammasi

| Kasbiy yo‘nalishi               | “Odam – tabiat”  |
|---------------------------------|--|
| Ish mazmuni                     | Oziq-ovqat resurslarini kengaytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, rasional baliqchilikni tashkil etish. Suv ostidagi kuzatuvlar turli xil qurilmalar (akvalang jihozlari, batiskaf, batiplan, suv osti televizion qurilmalari) yordamida amalga oshiriladi.  |
| Kasbiy faoliyatning sohasi      | Suv biologik resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, sun‘iy ko‘paytirish, ekologik xavfsizlikni takomillashtirish.   |
| Kasbiy faoliyatining obyektlari | Tabiiy va sun‘iy suv havzalarining ekotizimlari, qirg‘oq zonalar, suv biologik resurslari, akvakultura obyektlari.   |
| Kasbiy muhim fazilatlari        | Tabiatga muhabbat, xotira, harakatlarni muvofiqligi, jismoniy chidamlilik, kuzatuvchanlik.   |
| Kompetensiyalari                | <ul style="list-style-type: none"> <li>- rus va chet tillarida og‘zaki va yozma shaklda muloqot qilish qobiliyati;</li> <li>- o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati;</li> <li>- to‘laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta’minlash uchun jismoniy tarbiya usullari va vositalaridan foydalanish qobiliyati;</li> <li>- favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish usullarini, himoya qilish usullarini qo‘llash qobiliyati;</li> <li>- ixtiologiya, akvakultura, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kasbiy bilimlardan foydalanish qobiliyati;</li> <li>- materiallar, jihozlardan samarali foydalanishni amalga oshirish qobiliyati;</li> </ul> |

## 1-jadval davomi

|                     |   |
|---------------------|---|
|                     | <ul style="list-style-type: none"><li>- suv xo'jaligida texnologik asbob-uskunalarining ishlashga tayyorligi;</li><li>- tadqiqot ishlarida, tajribalarda ishtirok etish qobiliyati;</li><li>- suv biologik resurslari va akvakultura sohasida zamonaviy ilmiy tadqiqot usullarini qo'llash qobiliyati;</li><li>- mustaqil ravishda va ilmiy rahbarlik ostida eksperimental ma'lumotlarni yig'ish va birlamchi qayta ishlash qobiliyati;</li><li>- zamonaviy asbob-uskunalar yordamida loyiha-qidiruv ishlarida ishtirok etishga tayyorligi.</li></ul> |
| Tibbiy ko'rsatmalar | Allergik kasalliklar, bronxial astma, ongini yo'qotish bilan bog'liq kasalliklar, tayanch-harakat tizimining buzilishi.   |

**Izoh:** Professionalogramma - bu tanlagan kasbingiz bilan tanishish uchun zarur bo'lgan ma'lumot hujjati. Professionogramma - bu kasbning shaxsning shaxsiy fazilatlariga qo'yadigan asosiy talablarini o'z ichiga olgan xarakteristikasi, tavsifi: aqliy, psixologik, jismoniy va boshqalar. Kasbni to'g'ri tanlash, ehtimol, kasbiy faoliyatni to'liqroq bilishni nazarda tutadi. ish mazmuni, xarakteri va kelajakdagi mehnat faoliyati jarayonida munosabatlar. Kasb haqidagi ma'lumotlarning eng muhim manbalaridan biri bu professiogrammalardir.


Professionogramma - bu kasb yoki mutaxassislikning xususiyatlarini tavsiflovchi hujjat. Kasblar olamini o'rganuvchi bilim sohasi professiografiya deb ataladi. Professiografiyaning vazifalaridan biri kasblarning xususiyatlarini o'rganish va professiogrammalarni yaratishdir. Kasbiyografiya kasblar dunyosining aniq, yaxlit tasavvurini shakllantirish, har qanday yangi mutaxassislikning umumiy tabiatini tez va to'g'ri yo'naltirish qobiliyatini rivojlantirish va unga muvofiqligingizni aniqlash imkonini beradi.

Tegishli tashkilotlarda ishlaydigan 80 ta universitet bitiruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, yetakchi fiziologik xususiyatlar va jismoniy sifatlar ko'rsatkichlarini o'rganish "Akvakultura" mutaxassislarining kasbiy faoliyati charchoqning kuchayishi, o'ziga xos iqlim sharoitlari fonida maksimal vosita yuklari bilan tavsiflanganligini ko'rsatdi, relyefning xilma-xilligi va murakkabligi, ish joylarining ekspeditsiya bazalaridan uzoqligi, transport kommunikasiyalarining murakkabligi.

O'rganish jarayonida baliqchilik profilidagi mutaxassislarning mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur ko'nikma va ko'nikmalar shakllantirildi: hududda yo'naltirish, reja va xaritalar bilan tezkor ishlash, tabiiy to'siqlarni bartaraf etish, kundalik hayotni tashkil etish, sug'urta va o'zini o'zi boshqarish.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib, "Akvakultura" yo'nalishi talabalarining kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarligining namunaviy xususiyatlari aniqlandi (1-rasmga qarang).

Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy jismoniy tayyorgarligiga ta'sir qiladigan eng muhim sifatlar bular: chidamlilik, kuch chidamliligi, koordinatsion va suzish qobiliyatlari.



**1-rasm. “Akvakultura” yoʻnalishdagi talabalarning kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik namunaviy xususiyatlari**

Shunday qilib, kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik metodikasini ishlab chiqishda “Akvakultura” yoʻnalishining boʻlajak mutaxassislari, ularning mehnat faoliyatiga bevosita “oʻtkazish” taʼsiriga ega boʻlgan suzish vositalaridan foydalanish kerakligi aniqlandi, bu zarur kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirish va ularning kasbiy mahoratini oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, dasturni takomillashtirish va suzish vositalarini mashgʻulotlarga joriy etish uchun suzish vositalarining afzalligida “Akvakultura” yoʻnalishdagi talabalari uchun kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik blokli tizimi ishlab chiqildi (2-jadvalga qarang).

**2-jadval**

**Suzish vositalari afzalligidagi kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik blokli sistemasi**

| <b>“Akvakultura” yoʻnalish tayyorgarligi 1 (2) kurs 108 soat</b> |   |             |  |
|--|---|-------------|--|
| <b>I BLOK (22 soat)</b>  |   |             |  |
| <b>Suzish tayyorgarlik turlari</b>                               | <b>Asosiy vazifalar</b>   | <b>Soat</b> | <b>Nazorat meʼyorlari</b>  |
| Suzish tayyorgarligi   | Suv muhiti bilan tanishish: yurish, yugurish, shungʻish, qalqib chiqish, suv ostida koʻzlarni ochish, nafas olib-chiqarish, suv yuzasida yotish, suv yuzasida sirpanish | 6           | suvda nafas olib-chiqarishlar - 15 marta; koʻkrakda va chalqancha yulduzcha mashqi - 15 soniya; koʻkrakda va chalqancha nayza mashqi - 15 metr; narsa topish - 3 marta             |
| Akva-gimnastika  | Suvda sogʻlomlashtiruvchi mashqlar (suzish, tubda yurish va yugurish, kuchga, umumrivojlantiruvchi mashqlar)  | 8           | joyda turib tizzalarni yuqoriga koʻtarib va qoʻllar harakatlari bilan yugurish - 1 daqiqa; suzish taxtachasi bilan mashq* - 5 marta; tekis oyoqlarni yonga kutarish - 10 martadan. |
| Akvadjogging   | Ushlab turuvchi belbogʻ bilan suvda yugurish  | 8           | 100 metrga yugurish, suv koʻkrak qafasigacha   |
| <b>II BLOK (32 soat)</b>   |   |             |  |

## 2-jadval davomi

|                           |  |    |  |
|---------------------------|--|----|--|
| Akvabilding               | Suvda kuchga mashqlar: umumrivojlantiruvchi mashqlarni bajarish (oyoqlar, qo'llar uchun, sakrashlar, orqa mushaklari uchun mashqlar) turli tezlikda bajariladi   | 8  | oyoqlarni tubdan uzib tizzalarni ko'krakka ko'tarish - 15 marta;<br>tekis oyoqlarni oldinga ko'tarish (press) - 15 marta;<br>qo'llarni yonga ko'tarish - 15 marta.                                       |
| Akvastreching             | Suvda statik va dinamik cho'zilish mashqlari   | 8  | oyoqni yonga maksimal darajaga ko'tarish - 45°; oyoqlar yelka kengligida yonga yegilish - 45°; qo'llarni orqaga maksimal darajaga cho'zish – kaftlar orasidagi sm  |
| Amaliy suzish             | Chalqancha brass va yonbosh suzishda qo'llar va oyoqlar harakatini o'rganish   | 16 | chalqancha brass usulida suzish - 50 metr;<br>yonboshlab suzish - 50 metr  |
| <b>III BLOK (30 soat)</b> |  |    |  |
| Akvavibrogi mnastika      | Tovonlarni turli xil qo'l va oyoq holadida ko'tarish   | 6  | tovonlarni ko'tarish - 15 marta;<br>tovonlarni ko'tarib ushlab turish - 15 soniya;<br>oyoq uchlarini 45°ga qayltirib tovonlarni ko'tarib ushlab turish - 15 soniya.                                      |
| Amaliy suzish             | Og'irliklar bilan chalqancha brass va yonboshlab suzish, uzunlikka sho'ng'ish, suvga oyoqlar bilan tushish va sho'ng'ish, ko'krakda krol usulida suzish bosh suvni yuzasida  | 12 | og'irliklar bilan yonboshlab suzish - 25 metr;<br>og'irliklar bilan chalqancha brass suzish – 25 metr;<br>uzunlikka sho'ng'ish - 25 metr;<br>ko'krakda krol usulida suzish bosh suvni yuzasida - 25 metr |
| Suv ostida orientirlanish | Turli xil kiyimlarda, yo'nalishlarni o'zgartirib, turli xil qo'zg'atuvchilarga orientirlanib (chiroq, tovush, narsa) suv ostida suzish   | 12 | tovushga oriyentirlanish - 1 marta;<br>sho'ng'iyaptgan narsaga oriyentirlanish - 1 marta.  |
| <b>IV BLOK (24 soat)</b>  |  |    |  |
| Fridayving                | qo'llarni ishlatmasdan, arqon bo'ylab sho'ng'ish; statik nafas ushlab turish (nafasni suv yuzasida maksimal vaqt davomida ushlab turish, statik holatda); nafasni ushlab turib maksimal masofaga suv ostida suzish | 10 | tubda o'tirgan holda nafasni ushlab turish;<br>maksimal uzunlikka suv ostida suzish;<br>suv yuzasida yotgan holda nafasni ushlab turish.   |
| Amaliy suzish             | juftlikda suzish, transportirovka usullarini o'rganish, uzoq masofalarga transportirovka qilish, kiyimda suzish, changaldan qutilish, qirg'okka olib chiqish   | 8  | juftlikda charchagan suzuvchini transportirovka qilish - 100 metr;<br>chukayotgan odamni transportirovka qilish – 50 metr;<br>bosh suvni yuzasida kiyimda suzish - 50 metr.                              |
| Akvatlon                  | Suv ostida kurashish (suv ostida suzish uchun maskani yechish, bo'g'ish va og'rik usullaridan foydalanish man etiladi)   | 6  | tasmani raqibdan tortib olish  |

